



TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNING VUJUDGA KELISH SABABLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarida muammoli kreditlarning ko'p qirrali masalalari o'rganilgan bo'lib ularning o'ziga xos xususiyatlarni tushunishga e'tibor qaratgan holda, moliyaviy institutlarda risklarni boshqarishga doir muhim masalarga qaratilgan. Tadqiqot muammoli kreditlarning paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar, ularning iqtisodiy ko'rsatkichlari, kredit bozorining sharoitlari, qarz oluvchiga xos xususiyatlarni va tartibga solish ta'sirini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, tadqiqot muammoli kreditlarning kredit hajmi, turi va garovi kabi o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib chiqilgan va ularni kreditlardan ajratib turadigan holatlarga oydinlik kiritilgan. Shuningdek tijorat banklari uchun kreditlarni to'lamaslik xavfini kamaytirish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun muhim yondashuvlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, kredit amaliyoti, muammoli kreditlari, yuqori rentabellik, makroiqtisodiy omillar, kredit risklari, kredit shartnomalari.

ПРИЧИНЫ И ОСОБЕННОСТИ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Махмудов Рахимжан Хамид угли
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье рассматриваются многогранные вопросы проблемных кредитов в коммерческих банках, уделяется особое внимание пониманию их специфических особенностей, акцентируя внимание на важных вопросах, связанных с управлением рисками в финансовых организациях. Исследование включает факторы, влияющие на возникновение проблемных кредитов, их экономические показатели, состояние кредитного рынка, характеристики заемщиков, а также регуляторные эффекты. Кроме того, в исследовании рассматриваются специфические характеристики проблемных кредитов, такие как объем кредита, вид и обеспечение, а также выделяются обстоятельства, отличающие их от кредитов. Кроме того, представлены важные подходы коммерческих банков к разработке эффективных стратегий по снижению риска невыплата кредитов.

Ключевые слова: коммерческие банки, кредитная практика, проблемные кредиты, высокая доходность, макроэкономические факторы, кредитные риски, кредитные договоры.

REASONS AND FEATURES OF PROBLEM LOANS IN COMMERCIAL BANKS

Makhmudov Rahimjon Khamid ugli
Tashkent State University of Economics

Abstract. This article examines the multifaceted issues of non-performing loans in commercial banks, focusing on understanding their specific features, emphasizing important issues related to risk management in financial institutions. The study includes factors influencing the occurrence of problem loans, their economic indicators, the state of the credit market, characteristics of borrowers, as well as regulatory effects. In addition, the study examines the specific characteristics of problem loans, such as loan volume, type and collateral, and highlights the circumstances that distinguish them from loans. It also presents important approaches of commercial banks to develop effective strategies to reduce the risk of loan default.

Keywords: commercial banks, lending practice, problem loans, high profitability, macroeconomic factors, credit risks, loan agreements.

Kirish.

Mamlakat moliya tizimining barqarorligi va mustahkamligi uning tijorat banki sektori sog'lomligi bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu muhim sohada doimiy tashvish muammoli kreditlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Kechiktirilgan to'lovlardan tortib to defoltgacha bo'lgan noqulaylik belgilarini ko'rsatadigan ushbu kreditlar ham moliyaviy institutlar, ham tartibga soluvchilar uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Muammoli kreditlarni keltirib chiqaradigan murakkab omillarni tushunish, shuningdek, ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash risklarni samarali boshqarish va maqsadli choralarni shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy tizimda tijorat banklari uchun jiddiy risk tug'diruvchi bank amaliyotlardan biri muammoli kredit amaliyoti alohida o'rin tutadi. Ushbu kreditlar bank sektorida hamda iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadigan moliyaviy muammo hisoblanib kelmoqda. Iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirishda tijorat banklarining roli ahamiyati tobora oshgani sari ularning samaradorligi umumiy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan izohlanadi, chunki sog'lom va daromadli bank sektori salbiy zarbalarga bardosh bera oladi hamda moliyaviy tizim barqarorligiga hissa qo'shadi. (Athanasoglou, Brissimis and other, 2005). Xususan, muammoli kreditlar va moliyaviy barqarorlik kuzatilganda makroiqtisodiy sharoitlar yanada muhimroq bo'lib, uning ta'siri yanada mazmunli bo'lib bormoqda. Xalqaro bank amaliyotlari shuni ko'rsatmoqdaki Markaziy banklarning moliyaviy barqarorlik hisobotlarida, bank sektorining moliyaviy barqarorligiga eng katta tahdid muammoli kreditlari hisoblanmoqda. Tijorat banklari nafaqat o'z moliyaviy faoliyatini nazorat etishi, balki moliya tizimining barqarorligiga hissa qo'shish uchun muammoli kreditlarni samarali boshqarish muhimligini tan olib kelmoqda. Bank sanoati iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun kreditlar berish orqali iqtisodiy o'sish va rivojlanishda katta rol o'ynaydi. Biroq, kredit berishda har qanday kreditorning asosiy tashvishi moliyaviy mablag'larni qay tarzda qaytarishdir (Do, Ngo, Phung, 2020). Muammoli kredit amaliyotlarida qarz oluvchilarning qarz shartlari bo'yicha defolt qilish ehtimolidan kelib chiqadi va natijada muammoli kreditlarning yuqori darajasiga olib keladi. Moliyaviy bozorlar hamda iqtisodiy sharoitlar o'zgarib borar ekan, bank sektori barqarorligini ta'minlash uchun muammoli kreditlarni chuqur o'rganish zaruriyati ortib boradi. Ta'sir etuvchi omillar va o'ziga xos xususiyatlarning murakkab jarayonlarini ochib berish orqali ushbu tadqiqot manfaatdor tomonlarni, jumladan, tijorat banklari, tartibga soluvchilar va iqtisodchilarni muammoli kreditlar ko'rinishiga qarshi moliyaviy tizimning chidamliligini mustahkamlash uchun bebaho tushunchalar bilan jihozlashga harakat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Tijorat banklarida muammoli kreditlarning vujudga kelish sabablari va o'ziga hos hususiyatlari nazariy va amaliy jihatlari, hamda ularni joriy etish masalalari bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, tijorat banklarida muammoli kreditlarning vujudga kelish sabablari va o'ziga hos hususiyatlari bo'yicha ko'plab nazariy ilmiy ishlar qilingan va ta'riflar berilgan.

Xususan, iqtisodchi olimlar Ximenez va Saurina kreditlarning tez o'sishining kredit portlashiga ta'siri bo'yicha tadqiqotlarida kreditlarning tez o'sishi va muammoli kreditlarning ko'payishi o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligining empirik tahlillari orqali izohlagan (Jimenez and Saurina, 2005).

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki muammoli kreditlarning bir qancha sabablari bo'lib jumladan, iqtisodiy tanazzul, kredit riskini baholashdagi xatolar, garov ta'minotining etarli emasligi va qarz oluvchiga xos omillardan iborat. Tanqili iqtisodchi olim Mwangining (2012) fikricha kredit riski tijorat banklarni hamda butun biznes olamini tashvishga solishi natijasida savdo hamkorlarining o'z majburiyatlarini belgilangan muddatda to'liq bajarmaganligi boshqa sherikning ishlariga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin (Mwangi, 2012). Olimning fikricha Ba'zida bu qiyinchiliklar banklar nazorati ostida bo'lmagan tashqi hodisalar, xususan, bozor o'zgarishi, geosiyosiy omillar yoki kutilmagan global inqirozlar natijasida yuzaga kelishi bilan izohlash mumkin

Xorijlik olimlar Do, Ngo, Phunglarga (2020) ko'ra muammoli kreditlar banklar faoliyatini aks ettiradi. Banklar kredit berish amaliyoti orqali iqtisodiy o'sishni taraqqiy etishi va risklarni kamaytirish uchun zarur himoya choralarni qo'llab-quvvatlash o'rtasida muvozanatni saqlashga intiladi. Muammoli kreditlar paydo bo'lganda, tijorat banklari mas'uliyat bilan yondashishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Tadqiqotchilar aylanma mablag'larni boshqarish strategiyalarini o'rganishda moliyaviy qarorlarning ta'minot zanjiri faoliyatiga ta'sirini tushunishda hamda ta'minot zanjiridagi moliyaviy risklarni minimallashtirishda aylanma mablag'lar aylanuvchanligini oshirish zarurligini ta'kidlab o'tgan.

Xorijlik iqtisodchi olimlar Singh, Basuki, Setiawan (2021)larga ko'ra muammoli kreditlarni

kamaytirish bank infratuzilmalari tubdan o'zgarishi fonida, o'zgaruvchan biznes modellari, tartibga solish va muvofiqlik bosimining kuchayishi va innovatsion texnologiyalardan kelib chiqadigan yangi raqobat tufayli o'z aktsiyadorlari uchun foyda keltirib boradi. Binobarin moliya bozorlarida o'z mavqeini mustahkam pozitsiyasini saqlab turishda muammoli kreditlar amaliyotlarini samarali boshqarish va nazorat qilsih zarurati o'trib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.


Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada ilmiy abstraksiyalash usuli yordamida Tijorat banklarida muammoli kreditlarning vujudga kelish sabablari va o'ziga hos hususiyatlari asoslandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tijorat banklari qarz oluvchilarga moliyaviy barqarorlikni tiklashga yordam berish maqsadida kreditni qayta tuzish imkoniyatlarini o'rganishi, to'lov muddatini uzaytirish yoki vaqtinchalik yengilliklarni ta'minlash uchun qarz oluvchilar bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Bundan tashqari, banklar tashqi ekspertlar bilan hamkorlik qilishlari, me'yoriy huquqiy asoslarni himoya vositalarini qo'llashi va tartibga soluvchi ko'rsatmalarga muvofiq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar yaratishi mumkin. Bank sektorida muammoli kreditlarning yuqori darajasi va o'sish tendentsiyasi ushbu kreditlar bo'yicha ajratilgan aktivlarning ko'payishiga va natijada tijorat banklar va butun moliyaviy sektorining rentabelligi hamda kapital etarliligining potentsial pasayishiga olib keladi (Kozarić, Dželihodžić, 2020).

Tijorat banklari iqtisodiy o'sish va farovonlikka ko'maklashishda muhim rol o'ynashini tushungan holda muammoli kreditlarning o'z faoliyatiga va kengroq moliyaviy tizimga ta'sirini minimallashtirish uchun mas'uliyatli kreditlash amaliyoti hamda mustahkam risklarni boshqarishga sodiq qolishi alohida ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklari ushbu muammolarni faol va ehtiyotkorona tarzda hal etish orqali ishonchli moliyaviy vositachilar va o'zlari xizmat ko'rsatayotgan jamiyatlarning iqtisodiy farovonligiga hissa qo'shuvchi sifatidagi rolini qo'llab-quvvatlashni maqsad qilib boradi.

Muammoli kreditlar tijorat banklarning ishlash standartini aks ettirgan holda halqaro me'yoriy huquqiy asoslarga ko'ra, moliyaviy institutlar tavakkalchilik darajasi va to'lanmagan kredit sifatini anglatuvchi ko'rsatkich sifatida o'z ishlamaydigan kreditlarning umumiy kreditlar nisbati to'g'risida hisobot berishini nomoyon etadi. Ko'rsatkichlarning yuqori darajada aks etishi bank qarz summalarini undirmasa, yo'qotish riski katta ekanligini anglatadi, kichik nisbat esa to'lanmagan kreditlar bank uchun past riskini tug'diradi.



1-rasm. Muammoli kreditlarni samarali boshqarish yo'llari⁵²

⁵² Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilga

Yuqoridagi 1-rasmga ko'ra tijorat banklarida muammoli kreditlarni samarali boshqarish usullari keltirilgan. Unga ko'ra bugungi kunda tijorat banklarida o'z kapitalini saqlash, yuqori likvidlik, risklarni yumshatish hamda normativ muvofiqlik kabi omillar nafaqat muammoli kreditlarni boshqarishda balki bank moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlarini pozitiv holatiga olib kelishda aks etadi.

Kapitalning saqlanishi: Muammoli kreditlar to'liq to'lanmaslik xavfi ostida bo'lgan aktivlarni ifodalab tijorat banklari o'z kredit portfelining muhim qismi to'lanmaydigan kreditlar bo'lsa, u boshqa yo'l bilan yangi kreditlar va investitsiyalar uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan kapitalni bog'laydi. Muammoli kreditlarni samarali boshqarishda bank kapitalining noto'g'ri ishlayotgan aktivlarga bog'lanib qolmasligini ta'minlaydi, bu uning moliyaviy barqarorligi uchun zarurdir. Ushbu holatda bank sektorining moliyaviy barqarorligi o'zining joriy va kelajakdagi faoliyatida jiddiy buzilishlarsiz, moliyaviy natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan zarbalarni o'zlashtira oladigan jarayonni anglatadi.

Yuqori rentabellik: Muammoli kreditlar foiz daromadlarining pasayishi bilan bog'liq va ko'p hollarda moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan qo'shimcha zaxiralarni hisobdan chiqarishni talab qiladi.

1. Muammoli kreditlarni samarali boshqarish ushbu kreditlarni qaytarish yoki hal qilish strategiyalarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, bank o'z rentabelligini oshirishi, kreditlar bo'yicha foizli daromad olishni boshlashi va muammoli kreditlarni boshqarish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirib boradi. Muammoli kreditlar nisbatining pasayishi davlat sektori banklari va xususiy sektor banklari yuqori rentabellik ko'rsatkichlari sifati yaxshilanganidan dalolat beradi. Shuningdek, xorijlik iqtisodchi olimlar Stuti va Bansallar o'z ilmiy tadqiqotlarida muammoli kreditlar umumiy kreditlarga nisbatining oshishi tijorat banklarini xavotirga solishi lozimligini ta'kidlab o'tkan (Stuti & Bansal, 2013).

2. **Riskni yumshatish:** Muammoli kreditlar tijorat banklarida kredit riskining ajralmas ko'rinshlaridan biri hisoblandi. Risklarni noto'g'ri boshqarish banklarning ish faoliyatini salbiy munosabatlarni nomoyon qilish natijisida muammoli kreditlar va boshqa moliyaviy inqirozlar ortib borish tendentsiyani ko'rsamoqda (Haneef, 2012). Agar ushbu moliyaviy risk to'g'ri boshqarilmasa, to'lovga layoqatsizlik riski va moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Muammoli kreditlarni samarali boshqarish, ushbu kredit xavfini kamaytirishga yordam beradi va bankni beqarorlashtirishi mumkin bo'lgan kredit to'lamaslikning domino effektini oldini oladi.

3. **Normativ muvofiqlik:** Bank regulyatorlari tomonidan bank ega bo'lishi mumkin bo'lgan muammoli kreditlar darajasiga talablar qo'yadi. Kredit tavakkalchiligini miqdoriy baholashda tijorat banklari potentsial ravishda amalga oshirishi mumkin bo'lgan turli xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ular ham ichki kapitalga, ham risklarni boshqarishga, shuningdek, kapitalning minimal talablarini tartibga solishga ta'sir qiladi (Erdirinç, Gurov, 2016).


Bugungu kunga kelib muammoli kreditlarni samarali boshqarish tijorat banklar va moliya institutlarining samaradorligi hamda barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib ushbu kreditlarni muntazam nazorat qilish banklarning uzluksiz ishlashi va uzoq muddatli daromadlilik tsiklini va hayotiyiligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Muammoli kreditlarning makro va mikro darajadagi tasodifiy omillarni aylanish sikli bo'yicha xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra barqaror o'sishga mustahkam bank tizimisiz erishib bo'lmazligini ko'rsatadi.

Shuningdek, yuqori qarz odatda o'sishni sekinlashtiradi va moliyaviy beqarorlikka olib keladi (Kumar and Woo, 2010) (2-rasmga qarang).

2-rasmdan ko'rinib turibdiki muammoli kreditlarni makroiqtisodiy indikatorlar, xususan aholi jon boshiga past va yuqori foiz stavkalari qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatining pastligiga olib keladi hamda oxir-oqibat umidsiz qarzlarning yig'ilishiga sabab bo'ladi. Muammoli kreditlarning makroiqtisodiy sabablari energiya inqirozi, siyosiy beqarorlik, ishsizlik, YaIM o'sish sur'ati, inflyatsiya va yuqori foiz stavkasi kabi omillarni o'z ichiga oladi (Ikram & Sadiq, 2016).

Moliya institutlarida muammoli kreditlar zaxira kreditlar bo'yicha kutilayotgan zararlarni nazorat qilish mexanizmi sifatida qaraladi. Xorijiy amaliyotlar shuni ko'rsatmoqdaki, zaxiralar kreditlar bo'yicha sukut bo'yicha intsidentlarga sabab bo'ladi, muammoli kreditlar darajasi yuqori bo'lgan zaxiralarning yuqori stavkalari bilan bog'liq. Shuningdek, muammoli kreditlarni boshqarish nafaqat moliyaviy muammo, balki tijorat banklari samaradorligi, rentabelligi va umumiy barqarorligiga bog'liq bo'lgan asosiy ustundir (Hosna, Manzura, Juanjuan, 2009).



2-rasm. Muammoli kreditlarning makro va mikro darajadagi tasodifiy omillar ishtirokidagi aylanish sikli ⁵³

Ilmiy ishlanmalar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki muammoli kreditlar turli sabablarga ko'ra paydo bo'lgan va unga ko'ra tijorat banklar uchun kredit riskini samarali boshqarish va kamaytirish uchun juda muhimdir. Tijorat banklaridagi muammoli kreditlarning keng tarqalgan sabablari yuqoradigi rasmda keltirilgan (3-rasmga qarang).


Iqtisodiy tanazzul mamlakat makroiqtisodiy indikatorlari tarkibiga kiruvchi ish o'rinlarining kamayib ketishiga, aholi daromadlarining pasayishiga va tadbirkorlik faoliyatidagi muvaffaqiyatsizlikka olib kelishiga sabab bo'ladi. Qarz oluvchilar ushbu qiyin davrlarda kredit to'lovlarini amalga oshirishda ma'lum qiyinchiliklarga uchraydi hamda muammoli kreditlarning ko'payib borishiga olib keladi. Evropolik iqtisodchi olim R Mileris ilmiy ishlarida Litva davlatida tijorat banklari kredit portfelida muammoli kreditlarning yuqori ulushi muammosiga duch kelganini izohladi. Olimning tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, 2008 yildagi iqtisodiy tanazzuldan oldin muammoli kreditlar ulushi 4,6% bo'lgan bo'lsa, 2009 yilda bu ko'rsatkich 19,3% gacha o'sgan va 2012 yilgacha ushbu ko'rsatkich 18% yuqori darajani saqlanib qolgan (Asfaw, Bogale, Teame, 2016).

Kredit riskini salbiy baholash natijasida banklar zarur kreditga layoqatlilik mezonlariga javob bermaydigan qarz oluvchilarga kreditlar amaliyotlarini amalga oshirish nazarda tutiladi. Ushbu holatda kredit tavakkalchiligini ishonchsiz baholash, daromadlarni noto'g'ri tekshirish, garov ta'minotini noto'g'ri baholash, noto'g'ri kredit reytingi hamda kreditlarni to'lamaslik ehtimoli yuqori darajada bo'lishiga olib kelishi mumkin. Kredit riskini salbiy baholash bu kredit tavakkalchiligi bilan bog'liq hodisalarning moliya institutiga ta'sirini nazorat qilish jarayoni bo'lib, potentsial yo'qotish darajasini aniqlash, tushunis, miqdorni aniqlash va natijada kredit riskini kamaytirish uchun tegishli choralarni ko'rishni o'z ichiga oladi (Asfaw, Bogale, Teame, 2016).

Muammoli kreditlarni amalga oshirishda kredit tavakkalchiligini muvaffaqiyatli boshqarishni ta'minlash uchun kredit tashkiloti o'zining kredit riski strategiyasiga muvofiq har tomonlama boshqarishni ishlab chiqishi va joriy qilishi talab etiladi.

Banklar kredit riskini va boshqa risklar o'rtasidagi munosabatlarni ham hisobga olishlari kerak. Kredit tavakkalchiligini muvaffaqiyatli boshqarish risklarni boshqarishga yaxlit yondashuvning muhim elementi bo'lib, har qanday bankning uzoq muddatli muvaffaqiyati uchun zarurdir.

⁵³ Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.



3-rasm. Muammoli kreditlarning kelib chiqish sabablari⁵⁴

Qarz oluvchilarni to'liq tekshirish o'tkazilmasligi muammoli kreditlarga olib kelishi mumkin. Banklar qarz oluvchining to'lov qobiliyatini etarli darajada baholamasligi yoki anderrayting jarayonida muhim moliyaviy ma'lumotlarni e'tiborsiz qoldirishi noto'g'ri tekshirish oqibatlari bo'lib muammoli kreditlarni yanada oshishiga olib keladi. Shuningdek, iqtisodchi olimlar Jozef va boshqalar tomonidan qilingan tadqiqotlarga ko'ra salbiy kredit siyosati muammoli kredit tahlilining zaifligi va risklarni noto'g'ri boshqarish asosiy ta'sir qiluvchi omillar sifatida qaralgan (Joseph, Edson & other, 2012).

Kreditning kamayishi monitoringi, banklar tomonidan kreditlar berilgandan so'ng, banklar qarz oluvchining faoliyatini doimiy ravishda kuzatib borishi zarur aks holda noto'g'ri monitoring kreditga layoqatlilikning yomonlashuvini kech aniqlashga va to'lovni to'lash ehtimolini pasayishiga olib keladi. Banklardagi muammoli kreditlarning haddan tashqari yuqori darajasi korporativ boshqaruvning yomon usullari, kredit kamayish monitoring jarayonlarining sustligi va kredit risklarini boshqarish amaliyotining mavjud emasligi yoki ularga rioya qilmaslik bilan ham bog'liq bo'ladi (Hamisu, Ibrahim & other, 2021).

Siyosiy beqarorlik, savdo mojarolari va geosiyosiy keskinliklar iqtisodiy muhitga ta'sir qilishi va qarz oluvchilarning kreditlarni qaytarish qobiliyatini buzishi banklarda kredit portfelini sifatiga ta'sir etgan holda muammoli kreditlarning vujudga kelishining yana bir makro darajadagi omillaridan biri bo'lib hisoblanmoqda. Makro muhitda geosiyosiy omillar o'z ichiga oluvchi savdo bahslari, iqtisodiy noaniqlik, valyuta o'zgaruvchanligi, biznesdagi uzilishlar, sanoatning zaif tomonlari, mintaqaviy farqlar, sanksiyalar va cheklovlar hamda kredit portfelini diversifikatsiya qilishdagi kamchiliklar banklarda muammoli kreditlarning ko'payishiga va moliyaviy zararlarning ortishiga olib keladi.

Valyutalar o'zgaruvchan mintaqalarda valyuta kursining o'zgarishi ayniqsa valyutalari o'zgaruvchan mintaqalarda, haqiqatan ham qarz oluvchilarning boshqa (4-rasmga qarang).

⁵⁴ Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.



4-rasm. Banklar va kreditorlar o'rtasida muammoli kreditlarning vujudga kelishining ichki omillari⁵⁵

Qarz oluvchining bank bilan aloqaga chiqishdan bo'yin tovlashi banklar va kreditorlar o'rtasidagi ochiq muloqotda moliyaviy muammolarni hal qilish va kreditlarning muammoli bo'lib qolishida defolt holatini nomoyon etishiga sabab bo'ladi. Ushbu holatda kreditor bilan aloqa yo'qligi sababli muammoli kreditlarning paydo bo'lishi qarz oluvchi uchun qo'shimcha salbiy moliyaviy oqibatlarga olib kelishi masalan, hisoblangan foizlar, jarimalar va hatto agar kredit kafolatlangan bo'lsa, garovni yo'qotishiga olib keladi.

Qarz oluvchi moliyaviy holati bo'yicha ma'lumotlarni kech hamda to'liq bo'lmagan hajmda taqdim etishi, agar qarz oluvchi o'z moliyaviy ahvoli to'g'risida o'z vaqtida ma'lumot bermasa bank kreditorning kreditni to'lash qobiliyatidagi o'zgarishlardan xabardor bo'lmashligi mumkin. Ma'lumotlarning bunday kechikishi kreditni samarali boshqarishda qiyinchiliklarga olib kelishiga sabab bo'ladi (Maxmudov, 2023).

Asosiy qarz va foizlar bo'yicha to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilmasligi muammoli kreditlarning vujudga kelishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Unga ko'ra yig'ilgan qarz, kreditorning moliyaviy tangligi, qarzlarning to'planishi yuridik harakatlar riski, to'lovlarni o'tkazib yuborishi, kreditor va bank o'rtasidagi munosabatlarining keskinlashuvi hamda salbiy kredit hisoboti kabi omillar bevosita ta'sir o'tkazadi.

Asosiy qarz va hisoblangan foizlarning kelishilgan muddatda to'lanmasligi muammoli kreditlar paydo bo'lishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. To'lov majburiyatlarini bajarmaslik bir qator oqibatlarga olib kelishi mumkin.

⁵⁵ Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

Xususan to'lanmaslik kreditorning pul oqimiga ta'sir etib, bu kredit tashkiloti uchun moliyaviy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi, o'tkazib yuborilgan to'lovlar to'planib qolishi, natijada qarzdorning kredit reytingi va moliyaviy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishiga yuzaga keladi. Shuningdek, asosiy qarz va foizlarni to'lamaslik qarz oluvchining kredit tarixi bo'yicha salbiy hisobotga olib kelishi, buning natijasida qarz oluvchining kelajakdagi kreditlarini ta'minlash qobiliyatiga uzoq davom etadigan oqibatlarga olib kelishiga sabab bo'ladi.

Kredit monitoringi uchun zarur moliyaviy hisobotlarni taqdim etmaslik jismoniy shaxslar hamda korxonalar uchun jiddiy oqibatlarga olib keladi. Kredit monitoringi moliyaviy salomatlikning muhim jihati hisoblanadi, chunki u kreditorlarga kredit amaliyotiga layoqatliligini baholashga va kredit berish bo'yicha ongli qarorlar qabul qilishga imkoniyat yaratadi. Unga ko'ra kredit baliga salbiy ta'sir, kreditorlar bilan ishonchni yo'qotish, potensial huquqiy oqibatlar, moliyalashtirishning qiyinligi hamda moliyaviy xizmatlarga kirishning cheklanganligi kabi omillar ta'sir etuvchi sifatida izohlanadi.

Muammoli kreditlarda ssuda shartnomasi shartlarini buzishda, qarz oluvchining kredit shartnomasida ko'rsatilgan shart va talablarga rioya qilmaslik holatlari tushuniladi. Bu qarz oluvchi va qarz beruvchi uchun turli xil muammolarga olib keladi. Unga ko'ra qarz oluvchi kredit shartnomasi shartlarini buzsa, bu kreditor uchun xavf darajasini oshiradi. Buning sababi, qarz oluvchi moliyaviy beqarorlikni yoki o'z majburiyatlarini bajara olmasligini ko'rsatadi. Shuningdek, ba'zi hollarda kreditorlar qarz oluvchi bilan kreditni qayta tuzish yoki to'lovni yanada qulayroq qilish uchun shartlarni o'zgartirish bo'yicha muzokaralar olib borishga tayyor bo'lishi mumkin. Bu kredit muddatini uzaytirish, foiz stavkalarini o'zgartirish yoki boshqa o'zgarishlarni o'z ichiga oladi (Mamadiyarov, 2020).

Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini bajarishda qiynalayotgan muammoli kreditlar bo'lsa, kreditorlar qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashgani sababli kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish to'g'risida murojaat qiladi. Ushbu holatda kreditor birinchi navbatda qarz oluvchining moliyaviy ahvolini to'liq baholaydi. Bu moliyaviy hisobotlarni, kredit hisobotlarini va boshqa tegishli hujjatlarni ko'rib chiqishni o'z ichiga olishi mumkin.

Qarz oluvchi haqidagi salbiy ma'lumotlar haqiqatan ham muammoli kredit holatlariga olib keladi. Ushbu salbiy ma'lumot odatda moliyaviy beqarorlikni yoki kredit majburiyatlarini bajarmaslik tarixini ko'rsatadigan harakatlar yoki holatlarga tegishli bo'lib ular, kechiktirilgan to'lovlar, kreditlar bo'yicha defolt, bankrotlik holati, garovga qo'yish, qaytarib olish, sud qarorlari hamda kreditdan yuqori darajada foydalanish kabi omillarni o'z ichiga oladi.

Xulosa va takliflar.

Muammoli kreditlar ko'p hollarda qarz oluvchining nazorati ostida bo'lmagan bir qator tashqi omillar bilan bog'liq bo'lib, ushbu tashqi omillar qarz oluvchining moliyaviy barqarorligiga va uning kredit majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

1. Xususan, iqtisodiy tanazzullar, tabiiy ofatlar, global hodisalar yoki pandemiyalar bozor raqobati, ta'minot zanjiri uzilishlari, valyuta kursining o'zgarishi, foiz stavkalarining o'zgarishi hamda huquqiy yoki tartibga solish masalalari kabi omillar banklarda muammoli kreditlarni yuzaga kelishida tashqi omillar sifatida qaraladi.

2. Tijorat banklarida muammoli kreditlarning paydo bo'lishi ko'p qirrali masala bo'lib, iqtisodiy, sohaga oid, tartibga soluvchi va qarz oluvchi bilan bog'liq omillar kombinatsiyasi ta'siri ostida vujudga keladi.

3. Xatarlarni proaktiv boshqarish, oqilona kreditlash amaliyoti va muammoli kreditlar paydo bo'lishiga sabab bo'layotgan omillarni chuqur anglash tijorat banklar uchun bu muammoni samarali tarzda yumshatish va boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ushbu muammolarni hal qilish orqali banklar sog'lom kredit portfelini saqlash va ularning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashga harakat qilishi maqsadga muvofiqdir.

4. Tijorat banklari kredit tavakkalchiligini baholash jarayoniga to'liq tekshirish, garovni baholash, sanoat tahlili, pul oqimlarini tahlili, risklarni baholash tizimi, hamda muntazam portfel tekshiruvlari amaliyotlarni tizimli ravishda kiritish orqali potensial risklarni yaxshiroq aniqlash va boshqarish mumkin, bu esa kredit portfelining sog'lom va barqaror bo'lishiga olib keladi.

Adabiyotlar/Lumepamypa/Reference:

- Asfaw A. S., Bogale H. N., Teame T.T. (2016) *Factors affecting non-performing loans: case study on development bank of Ethiopia central region //International journal of scientific and research publications.* – 2016. – T. 6. – №. 5. – C. 656-670.
- Athanasoglou, P., Brissimis, S N., and Delis, M D. (2005), “ *Bank-specific, industry specific and macroeconomic determinants of bank profitability*”, MPRA Paper No. 153
- Do H., Ngo T., Phung Q. (2020) *The effect of non-performing loans on profitability of commercial banks: Case of Vietnam //Accounting.* – 2020. – T. 6. – №. 3. – C. 373-386.
- Do H., Ngo T., Phung Q. (2020) *The effect of non-performing loans on profitability of commercial banks: Case of Vietnam //Accounting.* – 2020. – T. 6. – №. 3. – C. 373-386.
- Erdinç D., Gurov A. (2016) *The effect of regulatory and risk management advancement on non-performing loans in European banking, 2000–2011 //International advances in economic research.* – 2016. – T. 22. – C. 249-262.
- Hamisu M., Ibrahim M.A., Zango A.G. (2021) *Credit Risk Management and Financial Performance of Selected Banks in Nigeria //POLAC ECONOMIC REVIEW (PER).* – 2021. – T. 1. – №. 1. – C. 1-12.
- Haneef S. et al. (2012) *Impact of risk management on non-performing loans and profitability of banking sector of Pakistan //International Journal of Business and Social Science.* – 2012. – T. 3. – №. 7. – C. 307-315.
- Hosna A., Manzura B., Juanjuan S. (2009) *Credit risk management and profitability in commercial banks in Sweden //rapport nr.: Master Degree Project 2009: 36.* – 2009.
- Ikram, A., Su, Q., & Sadiq, M. A. (2016). *Technical Efficiency And Its Determinants: An Empirical Study Of Surgical Instruments Cluster Of Pakistan. Journal of Applied Business Research (JABR), 32(2), 647.* doi.org/10.19030/jabr.v32i2.9601
- Jimenez, G. and Saurina, J., (2005), *Credit cycles, credit risk and prudential regulation, s.l.: Bank of Spain*
- Joseph, M.T., Edson.G, Manuere, F., Clifford, M., & Michael, K. (2012). *Non-Performing Loans in Commercial Banks: A case of CBZ Bank Limited in Zimbabwe. Interdisciplinary Journal of Contemporary Research in Business, Volume 4.*
- Kozarić K., Dželihodžić E. Ž. (2020) *Effects of macroeconomic environment on non-performing loans and financial stability: Case of Bosnia and Herzegovina //Journal of Central Banking Theory and Practice.* – 2020. – T. 9. – №. 2. – C. 5-17.
- Kumar, M., and J. Woo. (2010). “*Public Debt and Growth.*” Working Paper 10/174, International Monetary Fund, Washington.
- Matadiyarov, Z. (2020). *Тижорат банкларида муаммоли кредитларнинг вужудга келиш сабаблари ва уларни камайтириш йўллари. Архив научных исследований, (26).*
- Mwangi G. N. (2012) *The effect of credit risk management on the financial performance of commercial banks in Kenya : дис. – University of Nairobi, 2012.*
- SINGH S. K., BASUKI B., SETIAWAN R. (2021) *The effect of non-performing loan on profitability: Empirical evidence from Nepalese commercial banks //The Journal of Asian Finance, Economics and Business.* – 2021. – T. 8. – №. 4. – C. 709-716.
- Stuti, M., & Bansal, (2013). *S. An analysis of non-performing assets in Indian Banking sector*
- Махмудов С. *Логистика корхоналарининг активлари таркиби динамикасининг таҳлили //Economics and Innovative Technologies.* – 2023. – T. 11. – №. 1. – C. 105-117.